

**NUTQIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR BILAN ISHLASH MASALALARINING
DOLZARB MUAMMOLARI.**

Nurmuhammadova Ruxshoda Mirsodiq qizi

Nizomiy nomidagi O'zMPU Logopediya

yo'nalishi 2- bosqich talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarning rivojlanish xususiyatlari, nutq buzilishlarining asosiy turlari va ularning kelib chiqish sabablari yoritilgan. Shuningdek, nutq nuqsonlarining bolaning psixologik holati, ta'lim jarayoni va ijtimoiy moslashuviga ta'siri tahlil qilingan. Maqolada nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlashda logopedik yordamning ahamiyati, inklyuziv ta'lim sharoitida qo'llaniladigan pedagogik yondashuvlar hamda ota-onalar va mutaxassislar hamkorligining muhim jihatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar

nutq nuqsonlari, nutq rivojlanishi, logopediya, dislaliya, dizartriya, alaliya, duduqlanish, inklyuziv ta'lim, maxsus pedagogika, bola rivoji.

Аннотация

В данной статье рассматриваются особенности развития детей с нарушениями речи, основные виды речевых нарушений и причины их возникновения. Также анализируется влияние речевых дефектов на психологическое состояние ребенка, учебный процесс и его социальную адаптацию. В статье раскрывается значение логопедической помощи в работе с детьми с нарушениями речи, педагогические подходы, применяемые в условиях инклюзивного образования, а также роль сотрудничества родителей и специалистов.

Ключевые слова

нарушения речи, речевое развитие, логопедия, дислалия, дизартрия, алалия, заикание, инклюзивное образование, специальная педагогика, развитие ребенка.

Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar va ular bilan ishlash masalalari

Nutq — inson tafakkuri, muloqoti va ijtimoiylashuvining asosiy omillaridan biridir. Bola atrofdagilar bilan muloqot qilish, o'z fikrlarini ifodalash va bilimlarni o'zlashtirish jarayonida nutqdan keng foydalanadi. Shu sababli nutq rivojlanishidagi har qanday buzilish bolaning umumiy rivojlanishiga, psixologik holatiga hamda ta'lim jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar alohida pedagogik yondashuv va maxsus yordamga muhtoj hisoblanadi.

Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar tushunchasi

Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar — bu nutq tovushlarini to'g'ri talaffuz qila olmaslik, lug'at boyligining kamligi, grammatik jihatdan gap tuzishda qiynalish, nutq ravonligining buzilishi yoki nutqning umuman rivojlanmasligi bilan tavsiflanadigan bolalardir. Ushbu muammolar bolaning yoshiga mos rivojlanish me'yorlariga javob bermaydi va doimiy logopedik mashg'ulotlarni talab qiladi.

Nutq nuqsonlarining asosiy turlari:

Nutq buzilishlari shakli va og'irlik darajasiga ko'ra turlicha bo'ladi:

Dislaliya - ayrim tovushlarni noto'g'ri aytish yoki tushirib qoldirish;

Dizartriya - nutq apparati mushaklari faoliyatining buzilishi natijasida kelib chiqadigan noaniq nutq;

Alaliya - bolada nutqning kech, sekin yoki umuman rivojlanmasligi;

Duduqlanish (logonevroz) — nutq sur'ati, ritmi va ravonligining buzilishi;

Afaziya - avval shakllangan nutqning miya shikastlanishi sababli buzilishi;

Rinolaliya - ovoz va nutqning burun orqali chiqishi bilan ifodalanadi;

Disfoniya - ovozning bo'g'iq, past, ingichka yoki xiralashgan bo'lishi;

Tahilaliya – nutdagi ritm va sur'atining tezlashishi;

Bradilaliya - nutdagi ritm va sur'atining sekinlashishi.

Nutq nuqsonlarining kelib chiqish sabablari:

Nutq nuqsonlarining paydo bo'lishiga bir qator biologik, ijtimoiy va psixologik omillar sabab bo'lishi mumkin:

-Homiladorlik davridagi infeksiyalar, stress va dori vositalari;

-Tug'ruq jarayonidagi asoratlar, kislorod etishmovchiligi;

-Markaziy asab tizimi kasalliklari;

-Eshitish qobiliyatining pasayishi;

-Erta yoshda etarli nutqiy muhitning bo'lmasligi;

-Ruhiy zo'riqish va travmalar.

Nutqdagi nuqson bolaning nafaqat muloqot, balki bilim olish jarayoniga ham salbiy ta'sir qiladi. Bunday bolalarda:

-O'qish va yozishni o'zlashtirish qiyinlashadi;

-O'ziga ishonch pasayadi, tortinchoqlik paydo bo'ladi;

-Tengdoshlari bilan munosabatda muammolar yuzaga keladi;

-Psixologik holatda xavotir va qo'rquv kuchayadi.

Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitishda inklyuziv ta'lim muhim ahamiyatga ega. Ta'lim jarayonida:

-Individual ta'lim dasturlari ishlab chiqiladi;

-Darslar ko'rgazmali vositalar va o'yin asosida olib boriladi;

-Logopedik mashqlar muntazam tashkil etiladi;

-Psixologik qo'llab-quvvatlash ta'minlanadi.

Logopedik ishlarning ahamiyati:

Logoped boladagi nutq buzilishlarini aniqlaydi va tuzatish ishlarini olib boradi. Logopedik mashg'ulotlar quyidagilarni qamrab oladi:

- Tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishni shakllantirish;
- Nafas va artikulyatsiya mashqlari;
- Lug'at boyligini kengaytirish;
- Bog'lanishli nutqni rivojlantirish.

Ota-onalar bilan hamkorlik: Bola nutqini rivojlantirishda ota-onalarning ishtiroki muhimdir. Agarda mutahasis ishlab ota- ona bilan hamkorlik bo'lmasa nutq kamchiliklarini bartaraf etishda qiyinchiliklar yuzaga keladi va kutilgan natijaga erishib bo'lmaydi. Shu sababli ulardan quyidagilar talab qilinadi:

- Bola bilan ko'proq suhbatlashishi;
- Kitob o'qib berishi va savollar berishi;
- Logoped tavsiyalariga amal qilishi;
- Bolani kamsitmasdan, qo'llab-quvvatlashi zarur.

Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlash bugungi kunda ta'lim tizimining eng muhim va dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bola nutqining to'laqonli shakllanishi uning intellektual rivoji, ijtimoiy moslashuvi va ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatlari uchun asosdir. Shu bois nutq buzilishlarini erta aniqlash, tuzatish va oldini olish masalalari maxsus pedagogika oldida turgan muhim vazifadir. Biroq bu jarayonda bir qator echilishi kerak bo'lgan muammolar ham mavjud:

Erta tashxis qo'yishdagi qiyinchiliklar;

Ko'plab ota-onalar boladagi nutq muammolarini vaqtida sezmaydi yoki e'tiborsiz qoldiradi. Tibbiyot va ta'lim muassasalarida sistemali skrining tekshiruvlarining to'liq yo'lga qo'yilmagani erta tashxis qo'yishni murakkablashtiradi. Natijada bola logopedga kech murojaat qiladi.

Mutaxassislar etishmovchiligi;

Ba'zi hududlarda logoped, defektolog va psixolog mutaxassislar soni etarli emas. Maktab va bog'chalarda bir nafar logopedga bir nechta guruh yoki o'nlab bolalar to'g'ri keladi. Bu esa individual yondashuvni cheklaydi.

Ota-onalarning etarli xabardor emasligi;

Ota-onalar orasida nutq nuqsonlari sabablari, oqibatlari va davolash usullari haqida tushunchaning etarli emasligi bolani vaqtida mutaxassisga olib borishga to'sqinlik qiladi. Ba'zan noto'g'ri maslahatlar, internetdagi asossiz tavsiyalar yoki uyatchanlik sababli muammo kuchayib boradi.

Ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasining sustligi;

Nutq buzilishlarini tuzatish uchun maxsus jihozlar, ko'rgazmali materiallar, artikulyatsion apparatlar va zamonaviy texnologiyalar etishmaydi. Ba'zi ta'lim muassasalarida logoped kabineti yo'qligi ham uchraydi.

Inklyuziv ta'limda qo'llab-quvvatlashning etarli emasligi;

Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar umumiy ta'lim maktablarida o'qiyotganda qo'shimcha yordam va moslashtirilgan o'quv materiallariga muhtoj bo'ladi. Ammo ko'p maktablarda qo'llab-quvvatlovchi pedagog, psixologik xizmat yoki individual o'qitish dasturi to'liq ishlamaydi.

Individual yondashuvning kamligi;

Nutq nuqsonlarining turlari va og'irlik darajalari turlicha bo'lgani uchun har bir bola alohida yondashuvni talab qiladi. Amaliyotda esa ko'pincha umumiy bir xil mashg'ulotlar qo'llaniladi, bu esa kerakli natijani bermaydi.

Raqamli resurslar va zamonaviy metodlarning etarli darajada tatbiq etilmaganligi;

Dunyo tajribasida logopedik o'yinlar, mobil ilovalar, virtual mashqlar keng qo'llaniladi. Ammo mahalliy ta'limda bunday innovatsion vositalar hali to'liq joriy etilmagan.

Psixologik qo'llab-quvvatlashning etishmasligi.

Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar ko'pincha uyatchan, tortinchoq yoki o'ziga ishonchsiz bo'ladi. Ular tengdoshlari tomonidan masxara qilinishi mumkin. Ammo maktab va bog'chalarda bunday bolalar uchun psixologik yordam etarli darajada tizimlashtirilmagan.

Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlash uzoq va sabr-toqat talab qiladigan jarayondir. Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlash masalalari kompleks yondashuvni talab qiladi. Erta tashxis, malakali mutaxassislar tayyorlash, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ota-onalarga maslahat va qo'llab-quvvatlash xizmatlarini rivojlantirish ushbu yo'nalishning eng muhim vazifalaridir. Ushbu muammolarni bosqichma-bosqich hal etish orqali bolalarning nutq rivojlanishini yaxshilash, ularning ijtimoiy hayotdagi ishtirokini kengaytirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M.U. Xamidova "Maxsus pedagogika" . Toshkent-2018.
2. Ayupova. M.Yu. "LOGOPEDIYA" Toshkent 2007
3. Shomahmudova.Sh.R "Barmoqlar mashqi va nutq o'stirish". Toshkent-2018.
4. G'oziyev.E. "Ontogenez psixologiyasi". Toshkent "NIF MSH" 2020.
5. <https://anrotech.ru/blog/sovremennye-tehnologii-i-podhody-k-razvitiyu-rechi-detej-doshkolnogo-vozrasta/>.